

## Muzey – moziy va mangulik muhri

O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlar davlat muzeyi 1965 yilda tashkil topgan. Muzey ekspozitsiyasi Qurolli Kuchlar tarixi, Markaziy Osiyo xalqlari harbiy san'ati, shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari rivojlanishining hozirgi davrini aks ettiradi. Shuningdek muzeyda buyuk sarkarda Amir Temurga bag'ishlangan alohida "Temuriylar davri harbiy san'ati" ekspozitsiyasi ham mavjud. Bu yerda harbiy yurishlar xaritalari, askarlar saflanishining sxemalari, qurol-aslahalar, nishonlar va Temuriylar davrining boshqa eksponatlari o'rin olgan. O'zbekiston xalqining ikkinchi Jahon urushida ishtirokiga bag'ishlangan ekspozitsiya ham mavjud. "Mustaqil O'zbekistonni qo'riqlash" ekspozitsiyasida qo'shin turlari, harbiylar hayoti, ularning jangovar va harbiy-siyosiy tayyorgarligi haqida ma'lumotlar olish mumkin.

Bugun 2018 yil 12 yanvar kuni institutimiz "Gidromelioratsiya" fakulteti Suv xo'jaligi va melioratsiya ta'lim yo'nalishi 104-guruh talabalari guruh murabiyi, "Tuproqshunoslik va dehqonchilik" kafedrasida dotsenti Buriyev Salimjon boshchiligida Qurolli kuchlar davlat muzeyiga tashrif buyurishdi. Talabalar muzeyning 3-qavatida O'zbekiston hududida ko'p asrlar davomida harbiy sohaning rivojlanish tarixi bilan tanishdilar. Muzeyning 2-qavatida esa O'zbekiston harbiylarining mustaqillik yillarida shakllanish bosqichlari o'z aksini topgan. Guruh talabalari O'zbekiston harbiylarining mustaqillik yillarida ko'rsatgan jasorat namunalari bilan tanishishdi. Talabalar muzeyga tashrifdan katta taassurotlar bilan qaytishdi.



**Guruh murabiyi S. Buriyev axboroti**

**Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**